



**ABDULLA QODIRIY IJODIGA ADABIY TANQIDCHILIK  
MUNOSABATI**

***Sevinch Hamidjonova***

*FarDU, Filologiya fakulteti o'zbek tili  
yo'nalishi 4-kurs talabasi*

***Ibodatxon Rustamova***

*Filologiya fanlari doktori professor (DSc)*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o'zbek jadid adabiyoti namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyati va uning adabiy tanqidchilikdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Unda adib asarlariga berilgan baholar, tanqidchilarning fikrlari hamda turli davrlarda unga bo'lgan munosabat qisqacha yoritiladi. Shuningdek, Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi asarlarida milliy uyg'onish g'oyalari, tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilish, obrazlar tizimi, til uslubi ko'rib chiqiladi. Qodiriy ijodining o'zbek adabiyotidagi muhim o'rni, hamda adib merosining bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Abdulla Qodiriy, adabiy tanqidchilik, o'zbek romanchiligi, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish, obrazlar tizimi, badiiy talqin, uslub*

*Творчество Абдуллы Кадыри в оценке литературной критики*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается творческая деятельность одного из представителей узбекской джадидской литературы — Абдулла Кадыри, а также его роль в литературной критике. В ней кратко освещаются оценки его произведений, мнения литературных критиков и отношение к его творчеству в различные периоды. Особое внимание уделяется таким произведениям писателя, как «Ўткан кунлар» и «Меҳробдан чайн», в которых раскрываются идеи национального пробуждения, художественное осмысление исторической правды, система образов и языковой стиль. Также раскрывается значимость творчества Кадыри в*



узбекской литературе и актуальность его литературного наследия в современности.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри, литературная критика, узбекский роман, джадидская литература, национальное пробуждение, система образов, художественная интерпретация, стиль.

*The works of Abdulla Qodiriy in literary criticism*

**Annotation.** This article discusses the creative activity of Abdulla Qodiriy, one of the representatives of Uzbek Jadid literature, as well as his role in literary criticism. It briefly highlights the evaluations of his works, the opinions of literary critics, and the attitudes toward his work in different periods. Special attention is given to such works as "O'tkan kunlar" and "Mehrobdan chayon" which reflect the ideas of national awakening, the artistic interpretation of historical truth, the system of characters, and the language style. Furthermore, the importance of Qodiriy's work in Uzbek literature and the relevance of his literary heritage in the present day are revealed.

**Key words:** Abdulla Qodiriy, literary criticism, Uzbek novel studies, Jadid literature, national awakening, system of characters, artistic interpretation, style.

## KIRISH

XX asr o'zbek adabiyotining mumtoz namoyandasi, iste'dodli adib Abdulla Qodiriy o'zbek romanchilik maktabining asoschisi sanaladi. Abdulla Qodiriy asarlari yaratilgan ilk davrlaridanoq adabiy tanqidchilik doirasida muhokama qilinib kelgan va bu muhokamalar mustaqillikdan so'ng ham davom etgan desak bo'ladi. Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotining muhim bosqichini tashkil etadi. Adib nafaqat badiiy asarlari, balki ijtimoiy hayotga munosabati, tarixiy haqiqatni tasvirlash mahorati bilan ham adabiy jarayonda alohida o'rin egallaydi. Uning asarlari paydo bo'lgan davrdanoq adabiy tanqidchilar e'tiborini tortib kelgan bo'lib, turli davrlarda turlicha baholangan. Ayniqsa, jadidchilik davri va keyingi yillarda Qodiriy ijodiga nisbatan qarama-qarshi fikrlar bildirilgan: bir tomondan, uning asarlari milliy uyg'onish, tarixiy ong va ma'naviy qadriyatlarni tiklashga xizmat qilgan deb baholansa, boshqa tomondan, ayrim mafkuraviy qarashlar ta'sirida tanqid ostiga ham



olingan. Shunga qaramay, mustaqillik davriga kelib adib ijodiga adolatli va xolis baho berish jarayoni kuchaydi. Yuqoridagi gaplar isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirishimiz o‘rinli bo‘ladi: "Buyuk adibimiz, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o‘zligimizni anglashdi bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda".

## ASOSIY QISM

Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyatining boshlanishi XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914- yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan "Yangi masjid va maktab" sarlavhali xabar bosildi. Bu bo‘ljak adibning matbuotdagi birinchi chiqishi edi. Oradan ko‘p o‘tmay Abdulla Qodiriy "To‘y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylag‘il" kabi she‘rlarni yozdi. Abdulla Qodiriy ijodining ilk namunalarida milliylik va ma‘rifiylik ruhi ustuvor bo‘lib, ular jadidchilik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan edi. Muallif bu asarlarda xalqning og‘ir ahvolidan iztirob bilan so‘z yuritadi, nodonlikni keskin tanqid qiladi, bilim va ma‘rifatni yuksak qadrlaydi; turli maishiy illatlar tufayli bulg‘angan qalblarni adabiyot manbaining musaffo suvi bilan poklashni maqsad qiladi. U millatni hushyorlikka, uyg‘oqlikka va mustaqil tafakkurga da‘vat etadi. Adib aynan shunday jadidona ruhdagi asarlarida jamiyatni ichdan yemiruvchi illatlarni fosh etib, xalqni o‘zligini anglashga hamda yangilanish sari intilishga chorlaydi. Shuningdek, adibning "O‘tkan kunlar" romanining paydo bo‘lishi ham o‘zbek adabiyotida kutilmagan hodisa bo‘ldi. Ulug‘ qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov bu holning to‘g‘ri ifodasini topdi. U Abdulla Qodiriy "...romanlari go‘yo tekis sahroda to‘satdan Pomir tog‘lari vujudga kelganday paydo bo‘ldi...", — degan edi.<sup>1</sup> "O‘tkan kunlar" romani kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olindi. "O‘tkan kunlar" romanidan parchalar 1922 - yilda "Inqilob" jurnalida bosila boshlaganligini, 1925 - yili asarning bo‘limlari alohida-alohida holda, so‘ng 1926 - yili yozuvchining jiddiy tahriri bilan yaxlit holda kitob bo‘lib chiqqanini bilar edik. Adib romanini qachon

<sup>1</sup> Аvezов М. "Совет Ўзбекистони" газетаси, 1966- йил 12-январь



yo'zishga kirishgani haqida har xil taxminlar yurardi. 1937- yili Qodiriy ustidan uyushtirilgan jinoiy ish, tergov materiallarining e'lon etilishi tufayli ma'lum bo'ldiki, adibning o'zi "O'tkan kunlar"ni 1919- yilda yoza boshlaganini aytgan. Romanning 1925- yili chop etilgan birinchi bo'limiga ilova tarzida bitilgan "Uzr"da adib bu asar dunyoga kelishi bilanoq baxtsizlikka uchray boshlagani, "besh yillab bosila olmay" yotgani haqida kuyinib yozadi. Demak, roman 1920 - yildayoq asosan yozib tugatilgan, ammo asar qo'lyozmasi ustidagi ish u to'la holda nashr etilgungacha davom etgan".<sup>2</sup>

1920–30-yillarda Abdulla Qodiriy asarlari endigina yaratilgan paytda tanqidchilar tomonidan turlicha baholangan. Bu davrda Sotti Husayn va M. Sheverdin kabi tanqidchilar uning ijodiga murojaat qilgan. Ular asarlarni ko'proq sinfiy va mafkuraviy mezonlar asosida tahlil qilganlar. Natijada Qodiriy romanlari ba'zan eskilikni targ'ib qiluvchi yoki feodal qarashlarni aks ettiruvchi asarlar sifatida talqin qilingan. Bu esa adib ijodining asl badiiy mohiyatini to'liq ochib bera olmagan. Quyida bu ikki munaqqidlarning olib brogan ishlari haqida so'z yuritamiz. 1928-yilga kelib esa "O'tkan kunlar" romani haqida rus adabiyoti vakillaridan M. Sheverdin haqida maxsus maqola e'lon qilindi. Maqola "За партию" jurnalining mart sonida "Birinchi o'zbek romani" nomi ostida bosilib chiqdi. Muallif o'zining mazkur maqolasining ahamiyatini ta'kidlash maqsadida yozadi: "Ajablanarli joyi shundaki, "Maorif va o'qituvchi" jurnalidan boshqa milliy matbuot organlari roman haqida biror nima demadi. Kundalik matbuot romanni ko'rib ko'rmaganga soldi".<sup>3</sup> Maqolada M. Sheverdin "O'tkan kunlar" romani haqida o'z fikrlarini bayon etadi. M. Sheverdin maqolasi e'lon qilingandan keyin ko'p o'tmasdan "O'tkan kunlar" haqida o'zbek tilida ham xuddi shu aspektlar bo'yicha, faqat biroz kengaytirilgan holda, aybnomalar aytila boshlandi. Birinchi bo'lib bu ishni Sotti Husayn boshlab berdi. U "Kommunist" jurnalining 4-sonida M. I. Sheverdindan atigi bir oy keyin shunday deb yozadi: "O'tkan kunlar" o'zbek adabiyoti maydonida birinchi roman va yaxshi yozilgan roman. U shubhasiz go'zal va nafis bir asar... A. Qodiriy kuchli

<sup>2</sup> Normatov U. "Qodiriy mo'jizasi" — Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010

<sup>3</sup> Шевурдин М. "За партию". 1928, № 3, с. 96.



yoʻzuvchi, kuchli adib”.<sup>4</sup> Kitobda Sotti Husayn deyarli toʻliq ravishda M. Sheverdinni takrorlaydi. Tanqidiy yondashuv deyarli ham bir xil. Asarning bosh qismida goʻyoki adibning badiiy mahorati va estetik didi yuqori baholanadi, biroq keyingi boblarda muallif oʻz fikriga zid ravishda asarni deyarli barcha jihatdan, hatto badiiy qiymat nuqtayi nazaridan ham, arziyas darajaga tushirib qoʻyadi. Kitobning “Jurji Zaydon va A. Qodiriy” nomli bobida esa yozuvchining oʻziga xosligi, yaʼni u yaratgan yangiliklar shubha ostiga olinadi. Muallif Jurji Zaydondan bevosita koʻchirgan deb ochiq aytmasa-da, bayon etilgan fikrlar aynan shunday xulosaga olib keladi. Adibning “Oʻtkan kunlar” romanida yaratgan qahramonlar majmui — Otabek, Kumush, Oftoboyim, Oʻzbekoyim, Yusufbek Hoji, Mirzakarim qutidor, Hasanali kabi obrazlar milliy ruh va xarakterlarning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Bu roman orqali Abdulla Qodiriy oʻzbek adabiyotida romanchilik maktabini yaratgan, milliy tafakkur bilan tarixiy ongni jonlantirgan yirik yozuvchi sifatida adabiy tanqidchilar eʼtiboridan chetda qolmagan. Qodiriy asarlari jadidchilik ruhini aks ettirgani, milliy uygʻonish gʻoyalarini ilgari surgani sababli ijobiy baholangan. “Oʻtkan kunlar” romani oʻzbek adabiyotida birinchi realistik roman sifatida eʼtirof etilib, undagi Otabek va Kumush obrazlari orqali milliy xarakter, ijtimoiy muammolar va muhabbat mavzusi chuqur badiiy talqin qilingan. Tanqidchilar asarning til boyligi, syujet qurilishi va tarixiy haqiqatga yaqinligini yuqori baholaganlar. Biroq keyinchalik, ayniqsa sovet mafkurasi kuchaygan davrda, Qodiriy ijodiga nisbatan tanqidiy munosabat keskin oʻzgardi. “Oʻtkan kunlar” asarida eski tuzumni yetarlicha keskin qoramagan, ayrim joylarda anʼanaviy qadriyatlarni ijobiy koʻrsatgani uchun tanqid qilindi. Baʼzi tanqidchilar uni “oʻtmishni ideallashtirishda” aybladilar.

Barchamizga maʼlumki “Oʻtkan kunlar” romanidan soʻng Abdulla Qodiriy 1926- yil kuzida “Mehrobdan chayon” romanini yozishga kirishadi. Roman nisbatan tez yozildi, 1928- yilning fevral oyida asar ustidagi ish oxiriga yetdi, roman 1929- yil martida Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzusi XIX asr hodisalari “xon

<sup>4</sup> Qoʻshjonov M. “Qodiriy- erksizlik qurboni” -Toshkent: Fan nashriyoti, 1992



zamonlari” davridagi o‘zboshimchaliklarni ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsa-da, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan. Romanda Anvar bilan Ra’noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Akademik Matyoqub Qo‘shjonovning “O‘zbekning o‘zligi” kitobining ikkinchi bobida “Mehrobdan chayon” asari tahlilga tortadi. Matyoqub Qo‘shjonov o‘z tadqiq usuliga sodiq qolib, roman tahlilida asosiy e’tiborni yozuvchining poetik olamini yoritishga qaratadi. Tahlillar boblar bo‘yicha ajratilgan holda tartibli tarzda olib boriladi. Olim yozuvchining mahoratini belgilovchi asosiy ifoda yo‘nalishlari sifatida Solih maxdum, Anvar va Ra’no obrazlarining xarakter belgilarini yoritishda, mantiqiylik va tasviriylik uyg‘unligi, voqealar rivojini qurish hamda asar ziddiyatini belgilovchi omillar, davr va makonga xos real hayot manzaralari, ayniqsa, Xudoyorxon harami bilan bog‘liq tafsilotlar, ijtimoiy muammolarning ochib berilishi kabi jihatlar asosida o‘rganadi.

Mustaqillik davriga kelib, Abdulla Qodiriy ijodi to‘liq va xolis o‘rganila boshlandi.. Xususan, Oybek adib ijodi haqida tadqiqot ishi olib bordi. . 1936 yilda u «Abdulla Qodiriyning ijod yo‘li» nomli kitobini e’lon qildi. U Abdulla Qodiriyning yozuvchilik san’atini ishonarli dalil va tahlil bilan isbot qilishga harakat qiladi. Hayotning real manzarasini yaratishda Oybek Abdulla Qodiriy mahoratiga yuqori baho beradi. Oybek ushbu kitobida “O‘tkan kunlar” romanidan tashqari «Obid ketmon» qissasini ham tahlilga tortadi va yozuvchining qator muvaffaqiyatlarini ko‘radi. U Berdi Tatar obrazining muvaffaqiyatli chiqqanini qayd qiladi. Bu obrazni u «quyuq bo‘yoqlar ila san’atkorona» yaratilgan obraz hisoblaydi. Shuningdek, bu davrda Naim Karimov, Ibrohim G‘afurov, Bahodir Karim va Hamidulla Boltaboyev, Ozod Sharafiddinov kabi olimlar ham adib ijodini turli yo‘nalishlarda tadqiq etdilar. Naim Karimov Qodiriy hayoti va faoliyatini tarixiy hujjatlar asosida o‘rganib, uning milliy uyg‘onish davridagi o‘rnini aniqlab berdi. Ibrohim G‘afurov esa asarlarni falsafiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilib, obrazlarning ichki ruhiy olamiga e’tibor qaratdi. Ozod Sharafiddinov uning asarlarini badiiylik va estetik mezonlar asosida tahlil qilib, adib ijodining haqiqiy qadrini ochib berishga katta hissa qo‘shdi. U Qodiriy romanlaridagi obrazlar tizimi, realizm va milliy ruhni chuqur o‘rgandi



hamda adabiy tanqidni mafkuraviy qarashlardan xoli qilishga intildi. Bahodir Karim va Hamidulla Boltaboyev Qodiriy ijodini jadid adabiyoti hamda zamonaviy adabiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganib, uning milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini yanada kengroq ochib berdilar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodiga adabiy tanqidchilik munosabati o'zbek adabiyotshunosligi tarixida murakkab, ziddiyatli va bosqichma-bosqich rivojlangan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Dastlabki davrda uning asarlari zamonasining mafkuraviy talablari asosida biryoqlama talqin qilinib, asosan sinfiy va siyosiy mezonlar ustuvor bo'lgan. Bu esa adib yaratgan badiiy olam, obrazlar tizimi va milliy ruhni to'laqonli anglashga imkon bermagan. Sovet davrida esa bu holat yanada keskinlashib, Qodiriy ijodi uzoq vaqt davomida noto'g'ri baholandi yoki umuman e'tibordan chetda qoldirildi, natijada adabiy tanqid erkin va xolis rivojlana olmadi. Shu bilan birga, vaqt o'tishi bilan ayrim adabiyotshunoslar tomonidan Qodiriy merosiga nisbatan ilmiy va estetik yondashuv asta-sekin tiklana boshladi. Ayniqsa, mustaqillik davriga kelib, adib ijodi mafkuraviy bosimlardan holi holda, tarixiy haqiqat va badiiy mezonlar asosida chuqur o'rganildi. Bu jarayonda uning asarlaridagi milliylik, realizm, ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirish mahorati, obrazlarning ruhiy-psixologik chuqurligi kabi jihatlar keng yoritildi. Natijada Qodiriy ijodi nafaqat o'zbek adabiyotining muhim bosqichi, balki milliy tafakkur va tarixiy ongni shakllantirgan beqiyos meros sifatida qayta baholandi. Bugungi kunda Qodiriy ijodiga berilgan tanqidiy qarashlar evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, har bir davr adib merosiga o'z zamonasi nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsa-da, eng to'g'ri va xolis baho faqat erkin ilmiy muhitda yuzaga chiqadi. Shu bois Qodiriy ijodi va unga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarni o'rganish nafaqat adabiy jarayonni anglash, balki milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni chuqurroq idrok etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аvezов М. "Совет Ўзбекистони" газетаси, 1966- йил 12-январь



2. Normatov U. "Qodiriy mo'jizasi" —Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010
3. Шевердин М. "За партию". 1928, № 3, с. 96.
4. Qo'shjonov M. "Qodiriy- erksizlik qurboni" -Toshkent: Fan nashriyoti, 1992
5. Matyoqub Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi.— Toshkent:A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti,1994.
6. Bahodir Karimov. Jadidlar. Abdulla Qodiriy:risola –Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi,2022.